

## FARG'ONA VILOYATINING DEMOGRAFIYASI, TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI VA MIGRATSIIYASI

**Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li**  
*Andijon davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**  
*Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Farg`ona viloyatining demografiyasi, mehnat bozorlari va albatta tashqi iqtisodiy a'lqalari ya'ni import va eksport ma'lumotlari keng yoritilgan. Shu bilan birga tug'ilish va o'lim darajalari, nikoh va ajralishlar, tabiiy o'sish, migratsiya ya'ni ko'chib ketgan va ko'chib kelgan aholi kabu ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so`zlar:** Demografiya, inson, o`zbeklar, tug`ulish, nikoh, o'lim darajasi, ajralish, tabiiy o'sish, migratsiya, ko'chib kelish va ketish, eksport, import.

### ДЕМОГРАФИЯ, ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И МИГРАЦИЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация:** В данной статье широко освещены демография Ферганской области, рынки труда и, конечно же, внешнеэкономические связи, т.е. данные об импорте и экспорте. При этом обсуждались и такие данные, как рождаемость и смертность, браки и разводы, естественный прирост, миграция, т.е. переселившееся и переселившееся население.

**Ключевые слова:** Демография, народ, узбеки, рождаемость, брак, смертность, развод, естественный прирост, миграция, иммиграция и отъезд, вывоз, ввоз.

### DEMOGRAPHY, FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY AND MIGRATION OF THE FERGANA REGION

**Annotation:** This article widely covers the demography of the Fergana region, labor markets and, of course, foreign economic relations, i.e. import and export data. At the same time, such data as birth and death rates, marriages and divorces, natural increase, migration, i.e., were discussed. resettled and resettled population.

**Key words:** Demography, people, Uzbeks, birth rate, marriage, mortality, divorce, natural increase, migration, immigration and departure, export, import.

## KIRISH

Farg`ona viloyatining ayni damdagi doimiy aholi soni 2023 – yilning 1 – aprel holatiga ko`ra 3994,8 ming kishini tshkil etgan. Shundan shahar aholisi 2274,3 ming kishi va qishloq aholisi 1720,5 ming kishi, aholisi asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, qirg'iz, tatar va boshqa millat vakillaridan tashkil topgan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 413,9 kishi. [4]

**Asosiy qism.** Farg`ona viloyati 1938 – yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg`ona vodiysining janubida joylashgan. Viloyatda 2020 – yilning 1 iyul holatiga doimiy aholi soni 3 million 782,2 ming kishini tashkil etmoqda. Aholi yil boshidan 30,2 ming kishiga yoki 0,8 foizga o'sgan. Shundan, shahar aholisi soni 2 mln 133,2 ming kishini, qishloq aholisi esa 1 mln 648,9 ming kishini tashkil etadi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, qirg'iz, tatar va boshqa millat vakillaridan tashkil topgan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 413,9 kishini tashkil etadi. 2022 – yil 1 – oktyabr holatiga aholi sonining taqsimlanishi, 1 994 ming erkaklar (50,4%), 1 960 ming (49,6%) nafar ayollar hissasiga to`g`ri keldi. Hududlar kesimi bo`yicha qaralganda, Farg`ona shahri (304 ming), Quva (269 ming) va Qo`qon shaharlari (263 ming) viloyatdagi eng ko`ng aholi istiqomat qiluvchi hududlar hisoblanadi. [6]

**Tug`ulish darajasi:** Farg`ona viloyatida 2022 – yil holatiga ko`ra 101,308 tug`ulish mavjud bo`lib, ulardan 52,419 nafarini ayollar va 48,889 nafarini erkaklar tashkil etadi. Viloyat shaharlari ichida eng ko`p tug`ulishlar bo`yicha Farg`ona shahrining (6,893 kishi) tursa, tumanlar ichida esa Uchko`prik tumani (6778 kishi) turadi. 2010 – yilning shu davrida jami tug`ulishlar soni 70,662 kishini tashkil etgan bo`lsa, shularning 34,857 nafari qizlar va 37,353 nafarini o`gil bolla hisoblanadi. [1]

**O`lim darajasi:** Farg`ona viloyati 2022 – yilda o`lganlar soni 18460 kishini tashkil etdi, ulardan 10066 nafari ayollar va 8394 nafari erkaklar hisoblanadi. Viloyat shaharlari ichida eng ko`p o`limlar bo`yicha Farg`ona shahri (1901 kishi) tursa, tumanlar orasida esa O`zbekiston tumani (1237 kishi) birinchilikda turadi. 2010 – yilning shu davrida jami o`limlar soni 15870 kishi hisoblansa, shularning 7809 nafari ayollar va 8840 nafari erkaklarni tashkil etadi. [2]

**Tabiiy o`sish:** Farg`ona viloyatida 2022 – yil holatiga tabiiy o`sish 82848 kishini tashkil etadi va 2010 – yilning shu davriga (54792 kishi) nisbatan 28056 kishiga ortganini kuzatishimiz mumkin.

**Nikoh va ajralishlar:** Farg`ona viloyati 2022 – yilda FHDYO organlarida 32052 tanikohlar qayt etilgan. Eng ko`p nikoh Buvayda (2142 ta) tumaniga tog`ri keladi. Shuningdek, 2010 – yil hisobi bo`yicha 33361 ta nikoh qayt etilgan. Bu yil hisobi bo`yicha ham Buvayda (2453 ta) tumanida eng ko`p nikoh tuzilgan.

Farg`ona viloyatida 2022 – yil hisobida jami 5451 ta ajralish ro`yhatga olingan. Eng ko`p ajralish Farg`ona tumaniga to`g`ri keladi. Shu jumladan, 2010 – yil hisobi

bo`yicha 1473 ta ajralish hisobga olingan. Bu davr hisobi bo`yicha O`zbekiston tumani (111 ta) ajarlishlar bo`yicha yetakchilik qilgan. [7]

**Aholi migratsiyasi (ko`chib kelish va ko`chib ketish):** Farg`ona viloyatiga 2022 – yil hisobiga ko`ra jami ko`chib kelganlar soni 8618 nafarni tashkil etadi, shu bilan birga eng ko`p aholi Farg`ona shahrining (2992 kishi) o`ziga ko`chib kelgan. Eng kam aholi ko`chib kelishi Bag`dod tumaniga (63 kishi) tog`ri keladi. 2010 – yilning shu davrida jami ko`chib kelganlar soni 12747 kishini tashkil etgan va bu davrda ham eng ko`p aholi Farg`ona shahriga (2797 kishi) kelgan. Eng kam aholi esa Furqat tumaniga (88 kishi) kelgan.


Farg`ona viloyatidan 2022 - yilda ko`chib ketganlarning umumiy soni 11596 kishi tashkil etadi. Shu jumladan, eng ko`p ko`chib ketgan aholi Farg`ona shahrining (1635 kishi) o`ziga to`g`ri kelsa, tumanlardan esa Beshariq tumaniga (777 kishi) tog`ri keladi. 2010 – yilga nisbatan bu davrda jami 14052 kishi ko`chib ketgan. Shuningdek eng ko`p ko`chib ketish Farg`ona shahriga (2970 kishi) to`g`ri kelsa, tumanlardan esa Quva tumaniga (971 kishi) tog`ri keladi. [5]

### 1-jadval

#### 2010 – 2022 – yillarda aholining tabiiy harakati

Aholining tabiiy harakati	Kishi		
	2010 – yil	2022 – yil	o'sish, kamayish
Tug`ilganlar	70662	101308	30646
O`lganlar	15870	18460	2590
Tabiiy o'sish	54792	82848	28056
Viloyatga ko`chib kelganlar	12747	8618	-4129
Viloyatdan ko`chib ketganlar	14052	11596	-2456
Nikohlar	33361	32052	-1309
Ajralishlar	1473	5451	3978

### 1-rasm



**Eksport va import hajmi:** Farg`ona viloyatining tashqi savdo eksportti viloyat bo`yicha 2022 – yil hisobida jami 829343,8 ming.AQSH.doll. ni tashkil etdi. Eng ko`p eksport qilingan mamlakatlar Rassiya Federatsiyasi (346572,4 ming. AQSH.doll.), Xitoy (59212,8 ming.AQSH. doll.), Turkiya (90242,6 ming.AQSH,doll), Qirg`iziston (61671,7 ming.AQSH.doll) va Polsha (32994,7 ming.AQSH.doll) kabi davlatlar hisoblanadi. 2010 – yil hisobi bo`yicha jami eksport 451771,9 ming.AQSH.doll ni tashkil etgan. Eng ko`p eksport hamkorliklar qilingan mamlakatlarga Rassiya Federatsiyasi (91373,4 ming.AQSH.doll), Xitoy (84730,2 ming.AQSH.doll), Birlashgan Arab Amirliklari (35413,3 ming.AQSH.doll), Turkiya (28187,3 ming.AQSH.doll) va Latviya (27268,8 ming.AQSH.doll) kiradi.

Farg`ona viloyatining tashqi savdo importti viloyat bo`yicha 2022 – yil hisobida jami 1234612,0 ming.AQSH.doll ni tashkil etadi. Eng ko`p import qilingan mamlakatlar Xitoy (396473,7 ming.AQSH.doll), Rossiya Federatsiyasi (258571,7 ming.AQSH.doll), Qozog`iston (215198,9 ming.AQSH.doll), Turkiya (68223,3 ming.AQSH.doll) va Qirg`iziston (52765,4 ming.AQSH.doll) kabilar hisoblanadi. 2010 – yil holatiga ko`ra jami import 501930,9 ming.AQSH.doll ni tashkil etgan. Eng ko`p import hajmiga ega mamlakatlar qatoriga Qozog`iston (301017,8 ming.AQSH.doll), Rossiya Federatsiyasi (56026,9 ming.AQSH.doll), Xitoy (52205,1 ming.AQSH.doll) va Koreya Respublikasi (18981,2 ming.AQSH.doll) kiradi.

Farg`ona viloyatining eksport va import tarkibi umumiy hajga nisbatanfoizda 2022 – yilni 100 % deb olsak, 40,2% eksportni va 59,8 % i importni tashkil etadi. Shu jumladan eksport tarkibi, paxta tolasi (0.0%), oziq-ovqat mahsulotlari (33.0%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5.9%), energiya manbalari van eft mahsulotlari (1.3%), qora va rangli metallar (0.3%), mashina va asbob-uskunalar (1.0%), xizmatlar (1.5%) va boshqalar (57.0%). 2010 – yil hajmiga ko`ra eksport 47,4% ni va import 52,6% tashkil etgan. Bunda paxta tolasi (16.7%), oziq-ovqat mahsulotlar (13.4%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (14.6%), energiya manbalari van eft mahsulotlari (21.8%), qora va rangli metallar (0.0%), mashina va asbob-uskunalar (1.2%), xizmatlar (1.0%) va boshqalar (31.2%).

2022 – yil import tarkibi, oziq-ovqat mahsulotlari (14.4%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (9.3%), energiya manbalari va neft mahsulotlari (14.5%), qora va rangli metallar (11.4%), mashina va asbob-uskunalar (35.4%), xizmatlar (0.2%) va boshqalar (14.8%). Shu ko`rsatkichlar 2010 – yil hisobida, oziq-ovqat mahsulotlari (4.2%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7.5%), energiya manbalari va neft mahsulotlari (55.5%), qora va rangli metallar (2.7%), mashina va asbob-uskunalar (17.3%), xizmatlar (0.9%) va boshqalar (11.9%). [3]

## 2-jadval

### Farg`ona viloyatining eksport va import tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>
--	----------------	---------------

	<i>2022 – yil</i>	<i>2010 – yil</i>	<i>2022 – yil</i>	<i>2010 – yil</i>
Oziq-ovqat mahsulotlari	33.0%	13.4%	14.4%	4.2%
Paxta tolasi	0.0%	16.7%	-	-
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5.9%	14.6%	9.3%	7.5%
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1.3%	21.8%	14.5%	55.5%
Qora va rangli metallar	0.3%	0.0%	11.4%	2.7%
Mashina va asbob-uskunalar	1.0%	1.2%	35.4%	17.3%
Xizmatlar	1.5%	1.0%	14.8%	0.9%
Boshqalar	57.0%	31.2%	14.8%	11.9%

**Xulosa** qilib shuni aytishim mumkunki aholi soni ortgan sari ishga bo`lgan talab ham, ishsizlar soni ham ortib boradi. Shu bilan aholining yashash sharoiti ham salbiy tomonga o`zgara boshlaydi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun eng avval aholini ishchi kasblar bo`yicha kadr sifatida tayyorlash lozim. Faqatgina ishchi kasblar bo`yicha kadrlarni tayyorlash emas, o`quv jarayonlarini amaliyat bilan bog`lagan holda tashkil etish, ishsiz aholi, jumladan yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb va tadbirdorlik ko`nikmalarini shakllantirish ham ayni muddao hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ishsiz aholi va ish qidirayotgan shaxslar kasb hunarga o`qitilsa aholining o`z-o`zini band qilish qobiliyatga ega bo`ladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar moddiy, moliyaviy va intellektual boyliklarining mamlakatlar o`rtasida almashinuvining turli yo`nalishlari, shakllari va vositalarini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Bu har qanday mamlakat iqtisodiyotidagi eng murakkab soha bo`lib, rivojlanishi uchun atroflicha yondashishni taqozo etadi. O`zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishiga va bozor munosabatlari o`tishi, O`zbekiston geosiyosiy holatining tubdan o`zgarishi, bosqichma bosqich iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini ancha ko`tardi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farg`ona viloyatining Mehnat resurslari balansi 2022-yil balansi.
2. Farg`ona viloyatining statistik axborotnomasi. 2022-yil.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O`quv qo`llanma. –T., 2002.

4. Z.N. Tojiyeva , F.A. Do`smonov. „Demografiya” Toshkent- 2020.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. © 2008-2023 «Gazeta.uz»
7. [www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)